



## TURKISTON JADIDLARINING SHARQ VA G'ARB MASALASIDAGI QARASHLARI

SAYFULLAYEV Behruz Dilshod o‘g‘li

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix kafedrasi mudiri,*

*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada Turkiston jadidlarining Sharq va G‘arb dunyosi, bu yerdagi madaniyat va siyosatiga oid qarashlari, Yevropa madaniyati kirib kelishining salbiy jihatlari XX asr boshiga oid milliy matbuot materiallri asosida tahlil qilingan.*

*Kalit so‘zlar: Jadidlar, Ovro‘pa dunyosi, Sharq taraqqiyoti, Turkiston, Matbuot.*

### ВЗГЛЯДЫ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ НА ВОПРОС ВОСТОКА И ЗАПАДА

### АННОТАЦИЯ

*В статье на основе материалов национальной прессы начала XX века анализируются взгляды туркестанских джадидов на восточный и западный миры, их культуру и политику, а также негативные стороны внедрения европейской культуры.*

**Ключевые слова:** джадиды, европейский мир, восточное развитие, Туркестан, пресса.

### VIEWS OF TURKESTAN JADIDS ON THE QUESTION OF EAST AND WEST

### ABSTRACT

*Based on the materials of the national press of the early 20th century, the article analyzes the views of the Turkestan Jadids on the Eastern and Western worlds, their culture and politics, as well as the negative aspects of the introduction of European culture.*

**Keywords:** Jadids, European world, Eastern development, Turkestan, press.

### KIRISH

XX asrning boshlariga kelib dunyo siyosati, xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan voqealar faqatgina rivojlangan davlatlar, yoki Rossiya siyosatchilarining emas, balki Turkiston jadidlarining asarlarida ham ko‘p bora yoziladigan masalaga aylanadi.

Xalqaro maydonda sharq masalasiga bag‘ishlab asar yozgan jadidlardan biri Abdurauf Fitrat bo‘lib, uning “Sharq siyosati” asarida tarixda tinchlik va taraqqiy beshigi, madaniyatning yo‘lboshchisi, bilim va hunarning o‘chog‘i bo‘lgan ko‘hna Sharqning XX asr avvaliga kelib, “qon tengizlarinda botg‘an”ligi va buning sabab va oqibatlari tahlil qilinadi. Fitratning fikricha, Sharqda madaniyatning yuksalishi teran ildizlariga ega va G‘arbning madaniyat tarqatuvchilik da’vosi asosa ega emas. Uning bu boradagi qarashlari va amaliy faoliyatini quyidagi tasnif asosida o‘rganish metodologik ahamiyatga molik muhim umumlashmalar chiqarish imkonini beradi:

Sharqlilar Yunon, Eron va Hindistonda ko‘milib qolgan madaniyatni tiriltirdi, rivojlantirdi. Fitrat bu fikrni quyidagicha asoslaydi: “Ovro‘pa dunyosi vahshat va bilmaslik cho‘llarinda obdirab, shovqin-toshqin yurar ekan, Sharq dunyosi butun insoniyat olamini saodat va tinchlik o‘chog‘larig‘a erishdurmak uchun ish ko‘rub turar edi. Ovro‘pada bir mahalla oqsoqollig‘i yo‘q ekan, Sharqning “ko‘zquchu-nos, Barahma, Iso, Zardusht va Muhammadlari butun Odam o‘g‘ullarini to‘g‘ri va bilguli yo‘lg‘a kirguzmak uchun tirishar edilar. Chinlilar yozish uchun qog‘oz yasaganida ovro‘palilar o‘ng-so‘l qo‘llarini bir-birindan ayira olmas edilar” [1].

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sharq taraqqiyotida Ovrupadan ortda qolgani rost. Lekin Ovrupaning Sharqqa madaniyat berishi yolg‘on. Fitratning fikricha, Ovrupaning bizga beradigan narsalari belgili: safohat (ya’ni nodonlik), axloqsizlik, qimor va sharobxo‘rlik. Ushbu to‘rt illat Sharqni tanazzul girdobiga yanada chuqurroq tortish, uni taraqqiyidan bebahra qilish manbai o‘larоq xizmat qildi. Uning ta’kidlashicha, “Sharqning din va odatlariga qat’iyan to‘g‘ri kelmagan fohishaxonalarни o‘lkamizda Ovrupa jahongirlari ochdilar. Butun bashariyat hayotig‘a, maishatig‘a, ishiga rahnalar solg‘uchi sharob do‘konlari yurtimizda shul Ovrupa boylari “himmati” bilan quruldi. Faranga degan qo‘rqunch kasal Sharqg‘a Ovrupa jahongirlarining bosqinlari bilan keldi. Xulosa: Ovrupa jahongirlari Sharqg‘a axloqsizlik va buzuqlikdan boshqa bir narsa bermadilar”.

1918 yildan boshlab chiqa boshlagan va dastlabki nomi “Mehnatkashlar o‘qi”, 5-sondan boshlab “Mehnatkashlar tovushi”ga aylantirilgan Hoji Muish boshchiligidagi gazetada ham ayni shu masalaga oid ko‘plab siyosiy maqolalar e’lon qilingan. Jumladan, mazkur gazetada Abdulloh ismi bilan doimiy qatnashib turgan muallifning “Kima oid” nomli maqolasida tаддиq etilayotgan masalada quyidagi fikrlarni bildiradi: “Ovrupa barbarlarining buyuklarining Amirquisi “sharq”ni o‘z mulki, sharqlilarni o‘z qullari deb bilib kichikroq barbarlарg‘a Osiyoda yo‘l qoldirmadilar. Kichikroq barbarlar Ovrupada bo‘yunlarin qisib bechora bo‘lub yursalarda, jonuvorlar buyuk barbarlарg‘a tayanub “sharq” o‘rnig‘a Afriqodan

o‘zlarig‘a ulush olmoq fikrig‘a tushmakdan uyalmaydilar. Mana shunisi qiziqliki kichikroq barbarlarning qo‘li qisqaliq qilib “sharq”g‘a yeta olmag‘onlari o‘zining qisqa qo‘lli bo‘lg‘onig‘a achchig‘lanub buyuk barbarlarg‘a o‘pkalanib yurub, birdan hech bir sababsiz dunyoning bir chetindagi gunohsiz islom elin bosib to‘pg‘a tuta boshladilar. U to‘pg‘a tutilg‘on islom elinda faryod va fig‘onlar osmong‘a chiqsada kichik jonivorlar buyuk barbarlardan amin bo‘lg‘onlig‘i uchun qon to‘kushda mol talashda shuncha ilgari ketadirlarki hatto qatli omgacha yetadirlar” [2].

XX asr matbuotida Sharq va G‘arb masalasidagi eng munozarali masala bu Angliyannig O‘rta Osiyodagi siyosati hisoblanadi. Bu davr siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarida muhim hisoblangan “Ishtrokiyun” gazetasida Angliyaning Sharq, jumladan, Turkistonning siyosati masalasiga alohida urg‘u beriladi. Rossiyaning O‘rta Osiyoga bostirib kirishi va bu yerdagi harakatlariga nisbatan ingliz hukumatining harakatlari masalasi mazkur maqolada atroflicha tahlil qilinadi. “Sho‘rolar Turkistonining umuman O‘rta Osiyoda va umuman Hindistonda olajaq ulug‘ o‘rnin ko‘z oldig‘a ketiruv uchun bizga ortqaroq ko‘z solub, ingliz matbuoti afkor umumiyyasining rus askarlarining O‘rta Osiyoga harakatlarina qarashlarini tekshirurga kerak. Bunda eng avval, albatta, inglizlarning Ingiltara tojinda qimmatli olmos bo‘lg‘an Hindiston uchun umumiylarini tinchsizlanuvlari ko‘rinadir. 1864yilda rus hukumati Orenburg‘ ila G‘arbiy Sibir orasindag‘i yo‘lni Turkistong‘a qo‘shang‘a qaror berub, Turkistonga ikki qo‘sun askar yubordi. G‘arbdan Lomakin qo‘l ostida, sharqdan Chernayev askarlari tarafidan Avliyoota va Chimkend zabit etildi. Bu askariy harakat Ingiltara afkor umumiyyasida ko‘b shov-shuvlarg‘a sabab bo‘ldi.

Undan Russiyaning Osiyodagi harakati haqinda rus hukumatindan izoh so‘radi. Kanaz g‘orchafufga ingliz hukumatini Hindiston uchun yo‘qg‘a qo‘rquvdan tinchlandirirg‘a to‘g‘ri keldi. 1865 yilda Toshkand va 1868 yilda Samarqand oling‘ach Ingiltaraning tinchsizlanuvlari va yoxud so‘raluvlari yana boshlandi. Inglizlarning hamma izoh so‘rovlarig‘a rus hukumati “yangi hududlarda eski hududlardagi kabi tartibsizliklar va talovlar bor, shuning uchun yangi ko‘rish qabilalarinda qonung‘a itoat qildirurg‘a to‘g‘ri keldi. Yo shul yo‘l ila onlar o‘rtasina tartib kiriturga kerak, yoki Turkistonni butunlay tashlab ketarga kerak”, deb ravshan javob bera. Birda o‘zining O‘rta Osiyoga harakatinda davom etdi. Ingliz afkor umumiyyasi Hindiston uchun qo‘rquvindan Russiyaning vahshiy tilaklari haqinda qichqira boshladi” [3]

## XULOSA

Sharq va G‘arb masalasidagi yuqoridagi qarash boshqa ko‘plab jadidlarining qarashlariga xos bo‘lgan. Bu jihatdan, Cho‘lponning “Vatanimiz Turkistonda temir

yo‘lla” maqolasidan olingan quyidagi “ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro‘poning mo‘dosidin, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarg‘a bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatg‘a o‘xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmog‘imiz lozimdur. Ovro‘poning mo‘dosi, shishasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir, qul qiladur. Bundan saqlaningiz! Ovro‘poning maktab, madrasa, ilm-fan, sanoat, hunarg‘a o‘xshash madaniyatları sizlarni obod, ma’mur, olim qilub, johillikdan, asorat qulligidin qutulturodur. Birodarlar, ko‘zlariningizni ochib, yaxshi o‘ylangizlar!” [4].

Xulosa qilib aytganda, Turkiston jadidlari G‘arb axloqini, ma’naviyatga zid tur mush tarzini inkor etganlari holda, Yevropaning ilm-fan, ta’lim, texnika-texnologiya sohasidagi yutuqlarini Sharq ma’naviyati mezonlari asosida millat hayotiga tatbiq etish tarafdoi bo‘lganlar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Fitrat. Sharq siyosati. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. III jild (Nashrga tayyorlovchi: H.Boltaboyev). –Toshkent, 2003. – B. 213.
2. Abdulloh. Kima oid. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi. 1919-yil 13-may.
3. Ingiltaraning O‘rta Osiyo siyosati va Turkiston jumhuriyati. “Ishtirokiyun” gazetasi. 1919-yil 15-iyul. 134-son. - B. 3.
4. Cho‘lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar. // Sadoi Farg‘ona, 1914 yil 6 iyun, 26-son.